IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245

SPECIAL ISSUE

YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARIDA SO'Z QO'LLASH VA HUSNIXAT BILAN YOZISH FOYDALARI HAQIDA

Abdullaeva Vazira Quronovna

Qo'qon Universiteti "Ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

vaziraabdullayeva@34gmail.com.

Telefon : 93-043-45-79

Annotatsiya: O'zbek xalqining qadim-qadimdan nayob hisoblangan nodir kitoblari orqali xalqimizning tarixiy urf-odatlar, axloq-odob masalalari farzandlarga o'rgatib kelingan. Farzandlar tarbiyasida hamda savod chiqarishida so'z qo'llashning benihoya o'rni beqiyos. So'z orqali insoniyat ijtimoiy hayotda fikr almashadi, dunyo bilimlarini o'rganishga erishadi. So'z qo'llash ham san'atdir. So'zki, yozma tarzda bayon qilinsa, u hisnixatga aylanganida, nayob kitoblar yuzaga keladi. Fikrni bayon qilish yozma fikr-mulohazalarning aniq va ravonligini ta'minlab beradi.

Jahon xalqlarining manfaati va dunyoda inson omiliga e'tibor tildan, ayniqsa milliy tildan unumli va o'ziga xos xususiyatlariga tayanib ish olib borishni taqozo etadi. Xalqning ma'naviy qiyofasi va tafakkurini rivojlantirishda til va adabiyotning o'rni beqiyosdir. Zero, milliy til va adabiyot xalqning mentalital qiyofasini vujudga keltiradi.

Mazkur ilmiy maqolada nodir yozma manba bo'lgan "Qutadg'u bilig" asarida so'z qo'llash va chiroyli yozmoq haqidagi keltirilgan baytlarni tahlili keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: So'z, so'z qo'llash. bilim, milliy til, adabiy til, til, og'zaki nutq, yozma nutq, husnixat foydasi, fikr bayoi, mentalital qiyofa, yozma manba.

Agar fasohat bilan xat tenglashsa,

Bu yozma nutq tili juda ezgu til bo'ladi.

"Qutadg 'u bilig" asaridan.

Kirish.

O'zbek badiiy adabiyoti hamda hozirgi o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti uzoq davrlarni o'z ichiga oladi. Til va adabiyot bevosita davr va ijtimoiy-siyosiy muhit o'ziga xos ta'sirini ko'rsatibgina qolmay, til hodisalarini o'zgarishlariga ham sabab bo'ladi. Bu borada sotsiolingvistika, etnolingvistika kabi tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari asar matnidagi lisoniy imkoniyatlarni amaliy o'rganishni hamda adabiyot tarixi esa kelgusi avlodlar uchun muhim ajdodlardan qolgan bilimlarni etkazib berishga xizmat qiladi.

Xalq ma'naviy-ma'rifiy qarashlarining yuzaga kelishida badiiy kitoblarning, kitobdagi qo'llanilgan til birliklarining, ularning g'oya va mazmuni o'ta muhimdir. Bu borada X-XI asrlada yaratilgan nodir asarlarning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Tarix sarhadlarini esga olinganda, O‘rta Osiyo har zamon jahon ko‘z osida bo‘lgan. Bu yurtni kimlar o‘z qo‘l ostida saqlashga harakat qilmadilar. Biroq xalqning o‘z vataniga bo‘lgan mehr-muhabbati tufayli vatanni hech qanday zulum ostiga qo‘yishga rozi bo‘lmadilar. Vatanni muqaddas tutdilar.

VI-VII asrlarda butun O’rta Osiyo arablar tomonidan bosib olinishi, keyingi davr ruhi esa xaqlqning o‘z ona tilida o‘qish istagining pasaymasdan tobora ortib borish holatlari vatanda ilmu-ma‘rifatga ishtiyoqni ortishiga olib keldi.

XI asrda yaratilgan “Qutadg‘u bilig” asari aynan davlat boshqaruvi, odob-axloq, til, so‘z qo‘llash va insonni o‘zligi, ustoz va shogir odobi, ruhiy poklik sari borish to‘g‘risidagi fikrlarni o‘zida jamlagan.

Yetti sayyora va o‘n ikki burj

Inson farzandlarining qadri bilim va tafakkurda.

Tilning fazilat va manfaatlari

Kitob egasining uzri,

Bilim va aql-idrokning farqi to‘g‘risida ,

Bahor madhi, Kundug‘di elig haqida ,

Oyto‘ldining baxt haqidagi hikoyasi,

Kuntug ‘dining adolat haqida aytganlari jamdir.

Ko‘rinib turibdiki, “Qutadg‘u bilig” asarida tilga olingan inson uchun foydali mavzular qamrovi juda kengdir. Barcha masalalarni qamrovi bitta bosh nutqta borki, u butun asardan qizil ip bo‘lib o‘tadi. Bu INSON masalasidir.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asari XI asrda yaratilgan, asarning tili va so‘z boyligi o‘sha davr tilini namoyon qiladi. Tahlil qilinganida asardagi ayrim so‘zlarning lug‘aviy ma‘nolarini topish ancha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Asarda inson kamoloti uchun eng asosan bilim olish, hushxulq egasi bo‘lishga alohida urg‘u qaratadi. *“Bilig, uqush adrimin asg‘in ayur”(*“Bilim, aql-idrok farqini, nafini aytadi”) deb bilim olish haqida muallif alohida to‘xtab bu mavzuda asardan bob ajratadi.

“Qutadg‘u bilig” asarining ma‘no mazmuni asosan asar qahramonlarining o‘zaro savol-javoblar orqali suhbat jarayonidan bilib olish mumkin. Yusuf Xos Hojib bunda so‘z qudrati, ona tilining ichki imkoniyatlarini nozik tomonlaridan foydalangan. Bu borada muallif *“Men tukrcha so‘zlarni yovvoyi tog‘ kiyigi kabi bildim, shunga qaramay ularni avaylab-asrab qo‘lga o‘rgatdim”,* deb ta‘kidlagan edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarixiy davrlarda yuzaga kelgan voqeliklarni avloddan-avlodga yetib borishda adabiyotning o‘rni juda muhimdir. Adabiyot hamda til orqali xalqning ma‘naviy qiyofasi oshib boradi. Bu borada kitobxonlikni targ‘ib qilish juda katta ahamiyatga egadir. Inson kamoloti uchun tarixda yaratilgan noyob asarlar to‘g‘risida bilimlarni berish hozirgi kun nuqtayi nazaridan o‘ta muhimdir.

Umumta‘lim maktablaridan boshlab tarixiy nayob asarlar haqida o‘quvchilarni xabardor qilib borish orqali yosh avlodni tarixiy madaniy meroslar bilan yanada bilimlarini boyitishga ko‘mak beradi. Tarix kelajakning poydevori sanaladi.

Yusuf Xos Hojibning ijodining g‘oyaviy-badiiy ildizlari hayotbaxsh chashma - xalq dahosining so‘nmas ijodi ekanigi bilan qadrlidir.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari XI asrda yaratilgan, asarni o‘rganish asar yaratilgan vatqdan boshlab o‘rganilib juda mashhur bo‘lagan.

Asar haqida muallifning o‘zi ***“Boshidan oxirigacha donolar so‘zi, go ‘yoki tizilgan marjoning o‘zi ”*** deya izoh berib o‘tgan edi.

Hozirga qadar “Qutadg‘u bilig” asari juda ko‘p tillarga o‘girilgan. Yevropa xalqlari XIX asrning birinchi yarmidan boshlab “Qutadg‘u bilig” asarini o’rganila boshlangan.

Hozir asarning nemischa va ingliz tillariga to‘liq tarjimasi bor, ayrim parchlari qisman tarjima qilingan.

Yurtimizda “Qutadg‘u bilig” 1971 yilda nashr qilindi, bu nashr filologiya fanlari nozodi Qayum Karimov tomonidan o’rganilib kitob holda tabdil qilingan va transkripsiyasi bilan birga nashr qilindi. Mazkur asarni o‘rganish borasida jahon tilshunoslarining juda katta mehnatlarini ham alohida aytib o‘tish kerak bo‘ladi. “Qutadg‘u bilig” asarini o’rganishda V.V.Radlov, A.V.Vamberi, P.M.Melioranskiy, A.A.Samoylovich kabi jahon tilshunoslarini alohida ilmiy izlanishlarini aytish mumkin.

“Qutadg‘u bilig” asarining topilishi yuzasidan xabarlar XIX asrning birinchi choragida paydo bo‘ldi. Bu asarning hijriy 843(1439) yilda Hirotda uyg‘ur yozuvi bilan Hasan qara Sayid Shams tomonidan ko‘chirilgan nusxasi Turkiyaning Tugot shahriga, bu yerdan esa hijriy 879 (1474) yilda Abdurazzoq Shayxzoda baxshi uchun Fanari og‘li Kadi Ali tomonidan Istambulga keltirilgan. Uni mashhur tarixchi va sharqshunos Xammer Purgshtall Istambulda sotib olib, Vena Saroy kutubxonasiga keltiradi. Shundan so‘ng bu asar haqidagi birinchi xabar va uning ba‘zi namunalari 1823 yilda fransuz sharqshunosi Jauberg Amedee tomonidan “Journal Asiatique”da nashr etildi. 1870 yilda venger olimi Vamberi “Qutadg‘u bilig”ning eng muhim qismlarini “Uyg‘ur tili obidalari” va “Qutadg‘u bilig” nomi bilan nashr qildi va nemis tiliga tarjimasini berdi. 1890 yildan boshlab esa bu asarni mashhur rus sharqshunos olimi V.Radlov tekshira boshladi.

“Qutadg‘u bilig” asarining arab yozuvi bilan ko‘chirilgan uchinchi nusxasi haqidagi dastlabki

ma‘lumot 1914 yilda e‘lon qilindi.

Sharqshunos olim Valizoda 1913 yilning kuz oyida o‘z shaxsiy ishi bilan Qo‘qonga kelib, 1914 yil 20 aprelda Farg‘ona ekspeditsiyasi haqida mazkur jamiyatga qilgan hisobot ma‘ruzasida namanganlik **Muhammadhoji Eshon Lolasher** ismli kishining shaxsiy kutubxonasida “Qutadg‘u bilig” asarining arab yozuvida yozilgan nusxasi mavjud ekanligi haqida dastlabki ma‘lumotni beradi. Mazkur ma‘lumot e‘lon qilinganidan keyin Abdurauf Fitrat 1924 yilda Muhammad Eshon Lolasherdan mazkur nusxani oladi va Toshkentdagi asosiy qo‘lyozmalar kutubxonasiga keltiradi. Mazkur nusxa 1925 yilda “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida “Qutadg‘u bilig”ning Namangan nusxasi haqida Fitratning maqolasi chop etildi, 1928 yilda kelib esa asarning ayrim parchalari nashr qilindi.

“Qutadg‘u bilig” asarining arab yozuvida yozilgan Namangan nusxasida quyidagi matn uchraydi:

“Mochin olimlari va hakimlari qamug‘ ittifoq bo‘ldilarkim, mashriq va loytinda Turkiston uylarida Bo‘g‘roxon tilinja bu kitobdin behushyoroq har ko‘zkim orsotasniq qilindi. Bu kitob qo‘yib podshohqa yoqub, iqlimqa naqdi orsog ‘it o ‘zliqidin nahoyatdin kejokur gulu gul kindin...”

Ko‘rinib turibdiki, asarda Bog‘raxon (shaxsi) qo‘l ostidagi turkiy xalqlarni birlashtirib davlat tarkibiga kirgan hamma asosiy qabilalar uchun tushunarli bo‘lgan, shuning uchun ham bu asar “qayu iqlim” va “qayu podshahga” yetsa, ular tomonidan qadrlanib o ‘qilgan.

“Qutadg‘u bilig” asarining o‘rganilishida dastlab Ye.S.Bertels boshlab bergan. Keyinroq V.V.Valitova, I.V.Steblevaning ishlari asarni ayrim qirralarini yoritilishiga ko‘mak berdi.

Turk olimlaridan M.Kuprulizoda, O.Musoxonli, A.Dilacharlar ham asarni o‘rganilishida salmoqli kuzatishlar olib borgan. Shunga qaramasdan nodir asarning o‘rganilish davom etmoqda.

Shuni aytish mimkiki, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari inson ma‘naviy kamolotida hamda davlatni odilona boshqaruvida eng muhim qo’llanmadir. Undagi tilning nayob unsurlaridan qo’llashda muallifning o‘ta kuchli mahorat egasi ekanligini ko’rish mumkin.

METODOLOGIYA

Tilshunoslikda har bir davrda yozilgan asarlarni lingvotahlil qilish o‘ta muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada tarixiy nodir asarlarning til xususiyatarini kelib chiqishini tahlil qilishda kuzatish, izohli va lug‘aviy tahlil usullaridan foydalanildi. Shu bilan birga asar tilini hozirgi zamonaviy tilshunoslik bilan qiyoslash orqali o‘rganilishga erishildi.

TADQIQOT NATIJASI

Yurtimizda har bir ishni boshlamoqni moziy sarhatlariga ko‘ra amalga oshirish an‘anaga kirgan. Tarixni bilmoq, uni etnik qatlamlarini o‘rganmoq keyingi avlod uchun o‘ta muhim jihatdir. Tarix sahnasida yuzaga kelgan har bir nodir asarlar xalqimiz uchun muqaddasligi bilan ajralib turadi. Nodir asarlar barcha turkiy xalqlar adabiyotlarining keyingi bosqichlaridagi taraqqiyoti uchun asos hisoblanadi. Turkiyshunoslikda ana shunday nodir oltin bitiklardan biri XI asrda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarlarini alohida o‘rni mavjud.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining g‘oya va mazmuni hamisha o‘z badiiy jilosi bilan xalqimizni qalbidan joy olgan.

Xalqimizda oilada azal-azaldan ota-onalar qanchalik ma’naviy-axloqiy boy, e’tiqodli va yuqori ma’lumotga ega bo‘lsalar, shu darajada takomillashgan usul va uslublar yordamida o‘z farzandlarini tarbiyalaganlar.

“Qutadg‘u bilig” asaridagi chuqur ma‘no mazmun, o‘ziga xos voqelikni bayon qilinishi, xalqona ohang orqali muallif bildirgan fikr-mulohazalarning boshqa biror ijodkorga o‘xshamagan badiiy so‘z ifodasi orqali aks ettirilishi, adibning bu kabi so‘zni mahorat bilan qo‘llay olish jihatlarini ilmiy tadqiqot asosida kuzatishlarni olib borishga undaydi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini o‘rganilishi XI asrning o‘zidanoq boshlangani turkiy xalqlarning nafaqat adabiyoti balki til tarixini, uni rivojlanish qonuniyatlarini belgilashda o‘ta muhimdir. Shuni alohida ta‘kidlash kerak bo‘ladiki, “Qutadg‘u bilig” asari turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodi an‘analarini asosida oziqlangan mukammal asardir.

“Qutadg‘u bilig” asari XI asrda yaratilgan ilk yirik asar sifatida talqin qilinibgina qolmay, asardagi ijtimoiy-gumanitar, lingvistik, umumfilologik, manba va matnshunoslik, etnografik hamda pedagogik jihatlari asosida o‘rganishlar olib borilganligini alohida aytish kerak.

“Qutadg‘u bilig” asarida til, so‘z shu bilan birga chiroyli yosuv haqida ham bir qancha baytlarni muallif kiritishga erishgan. Ijtimoiy jamiyatda so‘zni qo‘llash va chiroyli yozishing foydalari haqida alohida to‘xtalgan.

Muallif asarda *“Uquv va bilimning tilmochi tildir. Kishiga ro‘shnolik, yaxshilik va ezgulik til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish kerak. Qut-izzati ham, obro‘-e‘tiborni ham kishi til orqali topadi. Agar til e‘tibor bermasa, uni no‘orin qo‘llansa, odam boshining yorilishi hech gap emas”,* deya tilning xususiyatlari haqida fikr bidirib o‘tgan edi.

Shu bilan birga muallif kitobxonga so‘z qo‘llash haqida bir qancha tavsiyalar berib o‘tadi. Tilni so‘zlamakka juda e‘xtyotkorlik bilan yondashishni ta‘kidlaydi.

Til arslon misoli yotar qafasda,

Bexabar boshini u yer nafasada.

Tilidan tutilgan ne deyar, eshit,

Amal qil bu so‘zga, o‘zigga ish et.

Balo keltiradi boshga bu tilim,

Boshimni u kesmay, qilayin tilim.

So‘zingni tiyib yur, boshing yormasin,

Tilingni tiyib tur, tishining sinmasin.

Asarda so‘z qadri, to‘g‘ri so‘zlilik haqida ham bir qancha fikrlar ketirilgan. Kishilarni kishilarga qoladigan merosi – so‘z deya ta‘kiqlaydi muallif. Kishilarni so’zdan to‘g’ri foydalanish (qo‘llash) lozimlini uqtililadi.

Ya‘ni, *“Kishidan kishiga qoladigan meros - so‘z”. Unga amal qilsang, ming-minglab foyda va naflar olasan. Zakovat har doim shunday uqtiradi: dag’al so‘z kishi boshiga ofat. Hasadli so‘z kishining qizil rangili osmonga aylantiradi.*

So‘zlashda xato qilmaydigan odam yo‘q. Xatoga yo‘l qo‘ymaydigan odamlarni sanab bera olasanmi ? Bilimsiz kishilar – donolarning dushmani. Bilimsiz doimo donolarga xorlik tilaydi. Bu ular ko‘nglining tub-tibida cho‘kib yotgan hasad alomati :

Kishi farqi bordir kishidan azim,

Bilimdan bu farq deb uqtirar so‘zim.

“Qutadg‘u bilig” asarida so’zni qo’llash undan foydalanishda insonga ziynat kabi obro‘ berishi to‘g’risida ham bir qator hikmatli fikrlari keltirish orqali so‘z qo‘llash san‘atiga alohida e’tibor qaratadi.

“So‘z tuya burniga o’xshash - unga jilov solsa bo‘ladi. Yoxud u tuyaning bo‘yini kabidir- yetovda yuraveradi. Dunyoda har bir so‘zni o‘ylab tushunib, taroziga solib gapiradiganlar ham talay. Ularni tushunganlar esa aziz va mo‘tabar. Olam yaxshiliklarining hammasi uchun sabab bilimdir. Bilim bilan hatto ko‘kka ham yo‘l topsa bo‘ladi. Shuning uchun qayerda kim bor ekan, sen o‘zing o‘sha yerda yondashtir, undan bahra ol”, deya so‘z haqida hikmatli tavsiyalar beradi.

“Qutadg‘u bilig” asarida muallif bir qator baytlarni kuzatish orqali bilim olishda husnixat bilan yozish san‘atini o‘ta muhim ekanligiga to‘xtalgan. Bu haqida muallif shunday baytlarni yozgan edi:

Kotib bilimli, zakovatli bo‘lishi kerak,

Xati chiroyli, so‘zga usta, ezgu fol bo‘lishi kerak.(2653)

Maktubda xat chiroyli bo‘lsa, ko‘ngli ochiladi,

Boqsa o‘qigisi keladi, ko‘ngil quvonadi. (2654)

Agar fasohat bilan xush xat tenglashsa,

Bu yozma nutq tili juda ezgu til bo‘ladi. (2655)

Ila (joy nomi bo ‘lgan)ning sirga yaqini nima deydi, eshitgin:

Yozma nutq usuli juda yaxshi usuldir.(2656)

Barcha ezgu so’zlar yozuvda bo‘ladi,

Yozilgan bo‘lganligi uchun so‘z unutilmaydi. (2657)

Yozuvchilar kitob yozmaganda edi,

Hikmatni, bilimni qanday qilib bilarding. (2658)

Yuqoridagi baytlari tahlil qilinganida shuni ko‘rish mumkinki, bilimning asosida so‘z va yozish egallaydi. Kitobxon har ikkisiga sabohat bilan egallash naqadar muhimligi asarda bayon qilinmoqda. Muallif yozma nutqning savodli kishilarning quroli ekanligi haqida ham ma‘lumotlar keltiradi.

Kishilar o‘rtasida bu yozuv bo‘lmasa,

Og‘zaki so‘zga kim ishongan bo‘lardi, ko‘rgin. (2660)

Kishilar eldan-elga xabar yuborishlariga to‘g’ri keladi,


Yozuv bo’lmasa, til uni qanday qilib tugal so‘zlaydi. (2661)

Yozuv juda ham keraklidir,

Yozuv bilan beglar elni idora qiladi.(lar) (2662)

Muallif asarda nutqnning ikki qirrasi og'zaki va yozma nutq haqida juda ko‘p fikr bildirib, kitobxonga bir qator tavsiyalar beradiki, bu ikki dunyo mo‘jizasii mukammal egalash foydali ekanligini uqtiradi.

Qadimiy davrlarning so‘z jilolarini o‘zida saqlab kelayotgan “Qutadg‘u bilig” asarini o’rganish davomida bilim, so‘z va yozma nutq – yozuv haqida juda ko‘p ma‘lumotlar keltirilgan. Bu ma‘lumotlarni tahlil qilinganida quyidagi ko ‘rsatkichlarni keltirib chiqardi.



1-rasm. “Quradg‘u bilig” asarida bilim, so‘z va yozuv so’zlarini qo’llanilishi yuzasidan ko’rsatkichlar.

“Qutadg‘u bilig” asarini tahlil qilinganida **bilim** leksemasi 50 foiz, **so‘z** leksemasi 48 foiz, **yozuv** leksemasi 45 foiz qo‘llangani kuzatildi.

“Qutadg‘u bilig” asarida bilim, so‘z, yozish kabi leksemasini qo‘llaganida bevosita o‘ziga xos tarzda o‘xshatishlar bilan tasvirlashga harakat qilgan. Bu kabi fikrlarni muallif kitob o‘quvchiga nasihat tarzda uqtirishga harakat qilgan. Muallif har bir bilimni yozib borish afzaliklari haqida “**Yozib qo‘ysa, so‘z saqlanadi, g‘ofil bo‘lsa esdan chiqadi…”,** deya hikmatli so‘zlarni foydalari haqida kitob o‘quvchiga o‘git (hikmat) beradi.

MUHOKAMA

Dunyo tilshunoslari hozirgi davrga kelib tilning har bir qamrovini alohida o‘rganib kelishmoqda. Har bir sohada bilimning cheksizligi va uni ifoda maxsuli bo‘lgan so‘z va yozuv ekanligini til tarixi haqida ma‘lumot beruvchi yagona nayob asar “Qutadg‘u bilig” asarida juda katta mahorat bilan bayon qilingan. Ma‘lumki, insoniyat doim harakatda bo‘lmog’i bilan bir qatorda o‘ziga xos xulq-

atvorga hamda ijtimoiy hayotda muomala madaniyatiga ham ega bo‘lishi kerak. Bu borada ham “Qutadg‘u bilig” asarida hikmatli so‘zlar joy olgan. Asarda muallif komil inson bo‘lish qoidalari haqida bayon qiladiki, kitobxon asardagi har bir fikrlarni o‘qir ekan, o’ziga bu kabi fazilatlarni shakllantirishga harakat qiladi.

Muallifning asarni yozishdan asosiy maqsadi ham insonlarni ezgulikka chorlash edi. Ezgulik nima ? Ezgulik insonlar ko‘ngliga yaxshilik, samimiylik, to‘g’rilik, vatanparvarlik eng asosiysi mehribonlik kabi fazilatlarni shakllantirishdir. Bu kabi fazilatlar so ‘z, yozuv orqali hayotiy bilimga erishiladi.

Insonlarni mana shunday fazilatli bo‘lishiga ko‘mak bergan, insonni qadrini ulug‘lagan, insonlar o‘rtasida mehr-muhabbatni jo qilgan buyuk so‘z va yozuv qadri to abad misli quyosh nuri kabi nur sochaversin.

Barcha ezgu so‘zlar yozuvda bo ‘lar,

Yozilgan bo‘lganligi uchun so‘z unutilmaydi. (2657)

Yozuvsiz ishni ko‘ngil mustahkam tutmaydi,

Ko‘ngil xotirasiga ishonma, yozib qo‘y, ey, ko‘ngil. (2738)

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmamatova.H.SH. Fil.f.d.diss...avtoreferati.(2021),2-B.

2.Gadoyeva.M.I.Somatizm frazeologik birliklarning konseptual tahlili. NamDu ilmiy axborotnomasi,(2020 yil, 12-son)

3. Karimov.Q.Qutadg‘u bilig.T,O‘zbekiston, (1971),5,14-B.
4..Boltayeva.B.I. O‘zbek tili frazeologik birliklarning transformatsiyasi. Dessetatsiya avtoreferati.(2019) 13-B

5.Yo‘ldoshev.B, Rashidov.U. O‘zbek frazeologiyasi. Toshkent. Navro‘z, (2016)
6.Rashidova.U.M. O‘zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili. Fil.fan.diss.avtoreferati, Samarqand,(2018), 2-B.

7.Xolmurodova.M.F.Qutadg‘u bilig leksikasi, Fil.fan... bo‘yicha diss...avtoreferati.(2019), 2-b.
8.Usmonova.M. Yusupova.I. Turli tizimli tillardagi somatik frazeologik birliklarning semantik tadqiqi.(2022),8-B

9.Gadoyeva.M.I. Ingliz va o‘zbek tillarda somatic frazeologik birliklar pragmatikasi. Namdu ilmiy axborotnomasi. (2021 3-son)
10.Bartolg‘d. V.V. Bograxan, upomyanutqy v “Kutadg‘u bilig” Soch.M.Nauka. Ocherk istori .(1968),5-B
11. To‘xliyev.B. Qutadg‘u bilig,T, “Cho‘lpon” nashriyoti. 2007, 18-bet
12.Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. DDA.T(2000) , B-50.

13.Abdullayeva, V.Q. (2023). YUSUF HOS HOJIBNING “QUTADG’U BILIG” ASARINING TIL XUSUSIYATLARI, UNDA FRAZEOLOGIK IBORALARNI QO’LLANILISHI TADQIQI. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 3(2).

14. Abdullayeva.V.K. The use of somatic phraseological units in ancient written sources, SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURAL VOLUME 3 ISSUE 3 MARCH 2024 UIF-2022:8,2|ISSN 2181-3337|SCIENTISTS.UZ.

15.Hojib Y.X. Qutadg ‘u bilig. Namangan nusxasi, muqaddima, O ‘zFa Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv.№ 1809.
16.Karimov. Q.Qutadg ‘u bilig,T, Fan nashriyoti, 1971,13-B.
17. Davlatova. S. F.Abdullayeva. BOLALARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIGA OID OTA-ONALARNING QARASHLARI, Educational Research in Universal Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 16 | 2023
18.Yo‘ldoshev. B. Rashidov. U. O‘zbek frazeologiyasi. Toshkent. Navro ‘z, (2016),B-48

WORDLY
KNOWLEDGE